

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**KASBIY TA‘LIM TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI
FANIDAN MALAKA TEST SINOVU TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

KASBIY TA'LIM TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Buxgalteriya hisobi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, kasbiy ta'lim, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Buxgalteriya hisobi

1. Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari;
2. Xo'jalik hisobi, uning mohiyati va ahamiyati
3. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi;
4. Buxgalteriya balansi
5. Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish
6. Buxgalteriya hioboti;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari	Korxonalar haqida tushuncha. Buxgalter kasbiga qo'yilgan talablar. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining ahamiyati. Buxgalterlarni milliy sertifikatlash tizimi. Buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash tizimi. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish tamoyillarini bilishi lozim	10 ta
2	Xo'jalik hisobi, uning mohiyati va ahamiyati	Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanishi. Buxgalteriya hisobining maktablari. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va uning ahamiyati. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish shakllari. Xo'jalik hisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yiladigan talablarni izohlay olishi lozim.	7 ta
3	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi	YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o'sish; inflyatsiya va ishsizlik turlari; fiskal va monetar siyosat; iqtisodiy sikllarni tahlil qilish; makro ko'rsatkichlar bo'yicha jadval va grafiklarni sharhlashni bilishi lozim.	8 ta
4	Buxgalteriya balansi	"Balans" tushunchasi va uning iqtisodiy ahamiyati. Buxgalteriya balansining mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilishi. Xo'jalik mablag'lari haqida tushuncha. Xo'jalik mablag'larini turiga, joylashishiga va tarkibiga ko'ra turkumlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8 ta
5	Tayyor mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish	Tayyor mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni turkumlash va ularni baholash. Tayyor mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni omborda va buxgalteriyada hisobga olish. Tayyor mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotilishini hisobga olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
6	Buxgalteriya hisoboti	Buxgalteriya hisobotining mazmun mohiyati va ahamiyati. Buxgalteriya hisobotining tarkibiy tuzilishi. Hisobot shakllarining tuzilish tamoyillari. Hisobotga ilovalar, tushuntirishlar va mahlumotlar to'g'risida tushunchalar. Hisobotlarni tuzish, ularni to'ldirish va	1 ta

		taqdim etish tartibi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	
--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A., Qayumov I., Ergashev A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: - “O‘qituvchi” NMIU 2009
2. Norbekov D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.:–“Iqtisod-moliya”, 2006 y.
3. Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: – 2004 y. 3. Do‘smuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2007 y.
4. Do‘stmurodov R.,Karimov A.,Musaev A., Fayzihev Sh. Buxgalteriya hisobi va audit.T.:”Voris Nashriyot”-2012 y
5. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. T.: – “SHarq” NMAK 2004 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*